



IS THINKING DEPENDENT ON LANGUAGE OR LANGUAGE ON THINKING? (SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Zulhumor Sidamatovna Nurullayeva

Associate Professor

University of Business and Science

Namangan, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: thought, language, belief, cognitive neurophilosophy, integrative model, gnoseology, philosophical analysis, worldview, relationship between language and thought.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article presents a comprehensive philosophical analysis of the relationship between thought and language based on ancient, Islamic, and contemporary scientific sources. It examines the role of language in shaping human thinking, its cognitive, logical, and spiritual influence on the thought process, as well as the independent functions of thinking in relation to language within various philosophical schools. Drawing on the views of thinkers such as Plato, Aristotle, Farabi, Ibn Sina, Wittgenstein, Sapir-Whorf, and Chomsky, the study analyzes three major models explaining the nature of the language-thought relationship: deterministic, universalist, and integrative approaches.

TAFAKKUR TILGA QARAMMI YOKI TIL TAFAKKURGA? (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

Zulhumor Sidamatovna Nurullayeva

Dotsent

University of Business and Science

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zl: tafakkur, til, e'tiqod, kognitiv neyrofalsafa, integrativ model, gnoseologiya, falsafiy tahlil, dunyoqarash, til va tafakkur munosabati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tafakkur va til o'rtasidagi o'zaro munosabatning falsafiy mohiyati antik, islomiy va zamonaviy ilmiy manbalar asosida keng qamrovli tahlil qilinadi. Inson tafakkurining shakllanishida tilning

tutgan o'rni, tilning fikrlash jarayoniga ko'rsatadigan kognitiv, mantiqiy va ma'naviy ta'siri, shuningdek tafakkurning tilga nisbatan mustaqil funksiyalari turli falsafiy maktablar doirasida qiyosiy ravishda yoritiladi. Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Vitygenshteyn, Sapir-Uorf va Chomskiy kabi mutafakkirlarning qarashlari asosida til va tafakkur munosabatining uch asosiy deterministik, universalist va integrativ yondashuv modellari ilmiy tahlil qilinadi.

ЗАВИСИТ ЛИ МЫШЛЕНИЕ ОТ ЯЗЫКА ИЛИ ЯЗЫК ОТ МЫШЛЕНИЯ? (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

Зулхумор Сидаматовна Нуруллаева

Доцент

Университет бизнеса и науки

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мышление, язык, убеждение, когнитивная нейрофилософия, интегративная модель, гносеология, философский анализ, мировоззрение, взаимоотношение языка и мышления.

Аннотация: В данной статье проводится всесторонний философский анализ взаимосвязи между мышлением и языком на основе античных, исламских и современных научных источников. Раскрывается роль языка в формировании человеческого мышления, его когнитивное, логическое и духовное влияние на мыслительный процесс, а также независимые функции мышления по отношению к языку в рамках различных философских школ. На основе взглядов таких мыслителей, как Платон, Аристотель, Фараби, Ибн Сино, Витгенштейн, Сапир-Уорф и Хомский, проводится научное исследование трёх основных подходов к природе связи языка и мышления: детерминистского, универсалистского и интегративного.

Kirish. Inson tafakkuri, til va e'tiqod kabi kategoriyalar falsafaning eng qadimgi masalalari qatoriga kiradi. Fikrning qanday shakllanishi, tilning tafakkur jarayonidagi o'rni va ularning o'zaro ta'siri haqida bahslar antik davrlardan tortib zamonaviy kognitiv fanlar davrigacha davom etib kelmoqda. Shu bois "tafakkur tilga qarammi yoki til tafakkurga?" degan savol faqat tilshunoslikka oid emas, balki gnoseologiya, mantiq, psixologiya va neyrofalsafa uchun ham fundamental muammolardan biridir.

Mazkur muammoning qadimiy ildizlari Platon va Aristotel qarashlarida mujassam bo‘lib, ular tafakkur va tilning o‘zaro nisbatini mutlaqo qarama-qarshi tomonlardan talqin qilgan. Antik davrda “logosa asoslangan fikr”, “aqlning universalligi”, “tilning voqelikni ifodalovchi shakl” sifatidagi yondashuvlar keyingi asrlardagi falsafiy izlanishlar uchun metodologik poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Sharq–islom falsafasi esa mazkur muammoni yanada chuqurlashtirib, tafakkurning metafizik asoslari, aqlning bosqichlari, til va ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlikni yangi nuqtai nazardan yoritdi. Forobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy kabi mutafakkirlar tilda ifodalanadigan mantiqiy strukturalar, ichki fikrlash jarayoni va e’tiqodning bilish jarayoniga ta’siri haqida original g‘oyalar ilgari surgan.

ASOSIY QISM. XX asrga kelib, bu masala yangi ilmiy kontekstda qayta ko‘rib chiqila boshlandi. Sapir—Uorf gipotezasi til tafakkurga bevosita ta’sir qiladi degan g‘oyani ilmiy asoslashga urindi; Vitygenshteyn tilning chegaralari orqali fikrning chegaralarini belgiladi; Chomskiy esa aksincha, tafakkur tuzilmalari tug‘ma bo‘lib, til faqat ularni ifodalaydi degan nazariyani ilgari surdi. Hozirgi zamonaviy neyrofalsafa esa tasavvur va mantiqiy tafakkur til paydo bo‘lmasidan avval ham mavjud bo‘lishi mumkinligini isbotlamoqda.

Shunday qilib, tafakkur va tilning o‘zaro munosabati bir yoqlama izohlanmaydigan, murakkab falsafiy muammo bo‘lib, u turli davrlar va falsafiy an‘analarda turlicha talqin qilinib kelgan. Mazkur maqolada ushbu masala antik falsafa, islom falsafasi va zamonaviy kognitiv-analitik yondashuvlar doirasida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — tafakkur va til munosabatining turli konseptlarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularning umumiylik va farqli jihatlarini aniqlashdir. Metod sifatida tarixiy-falsafiy tahlil, qiyosiy yondashuv, konseptual-analitik talqin hamda mantiqiy dekompozitsiya usullaridan foydalaniladi.

Mazkur izlanishning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi globallashuv, madaniyatlararo muloqot, diniy tafakkur, axborot muhitining keskin o‘zgarishi sharoitida til–tafakkur o‘zaro ta’sirini chuqur anglash inson dunyoqarashi, e’tiqod tizimi va intellektual rivojlanish jarayonini tushunishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois maqola nafaqat nazariy-falsafiy jihatdan, balki amaliy–ijtimoiy kontekstda ham yuqori ilmiy va ma’naviy ahamiyatga ega.

Tafakkur insonning borliqni umumlashtirish, tushunchalar yaratish, hukm chiqarish va mantiqiy xulosaga kelish jarayonidir. Aristotelning “De Anima” (“Jon haqida”) asarida tafakkur (nous) “abstraktlik va universallikka yo‘naltirilgan aqliy faoliyat” sifatida talqin qilinadi[1]. Unga ko‘ra, fikrlash jarayoni sezgidan boshlanadi, ammo mantiqiy umumlashtirish orqali sezgidan mustaqil bo‘lgan aqliy shakllarga ko‘tariladi.

Islom falsafasi (xususan, Forobiy va Ibn Sino) tafakkurni uch bosqichdan iborat jarayon sifatida sharhlaydi: tasavvur, tasdiq va istidlol[2]. Bu yondashuvga ko'ra, tafakkur til bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tushuncha va hukmlarning shakllanishi til orqali tartibga solinadi. Ibn Sino "Kitab ash-Shifo" asarida "til fikrning tashqi ifodasidir, ammo fikrning o'zi tilga teng emas" degan mashhur tezisni asoslaydi[3].

Zamonaviy neyrofalsafa esa fikrlashning ba'zi turlari tilga bog'liq emasligini ko'rsatadi. Masalan, vizual tafakkur, motorik tasavvur yoki intuitiv qaror qabul qilish jarayoni til bilan bevosita bog'lanmaydi.

Til klassik falsafada asosan logoso (ma'no, aqliy tartib) bilan bog'langan. Platon "Kratil" dialogida tilni "borliqning nomlar orqali tartiblanishi" sifatida ta'riflaydi[4]. Til bu nafaqat muloqot vositasi, balki tushunchalar tizimini saqlovchi ma'naviy mexanizm sifatida qaraladi.

Forobiy ("Kitab al-Huruf") va Ibn Sino tilni mantiqiy kategoriyalarni tashqi shaklga soluvchi vosita sifatida ko'rgan. Forobiyga ko'ra, "til tafakkurning tashqi tartibidir, mantiq esa ichki tartibi"[5]. Shu sababli, til tafakkurni shakllantiruvchi emas, balki uni tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi.

XX asr falsafasida esa tilning ahamiyati keskin o'zgardi. Vitygenshteynning "Tractatus Logico-Philosophicus" asaridagi mashhur g'oya (Tilimning chegaralari dunyoning chegaralaridir) tilning inson ongidagi konseptual strukturalarni belgilashdagi rolini ko'rsatadi[6].

Falsafa tarixida "tafakkur-til" munosabatining uch asosiy modeli shakllangan:

1) Til tafakkurni belgilaydi (deterministik pozitsiya)

Bu pozitsiya XIX—XX asrlarda Sapir—Uorf gipotezasida o'z ifodasini topdi. Unga ko'ra, inson dunyoni idrok etishi, kategoriyalashi va tahlil qilishi asosan uning til tizimiga bog'liq. Masalan, ranglarni ajratish, vaqtni tushunish yoki fazoviy tasniflar til strukturalari bilan belgilanadi.

2) Tafakkur tilga ustun (universalist pozitsiya)

Aristotel, Ibn Sino va Chomskiy kabi mutafakkirlar bu pozitsiyaning asosiy namoyandaligidir. Chomskiy o'zining "universal grammatika" nazariyasida "til inson miyasida tug'ma kognitiv strukturalarning ifodasidir" deydi[7]. Demak, tafakkur tilga bog'liq emas, aksincha, til tafakkurdan kelib chiqadi.

3) Til va tafakkur o'zaro ta'sirdagi tizim (integrativ pozitsiya)

Zamonaviy kognitiv lingvistika (Lakoff, Johnson) tilni fikrni shakllantiruvchi metaforik tizim sifatida talqin qiladi, neyrofalsafa esa miyaning ayrim jarayonlari tilga bog'liq bo'lishini, ayrimlari esa mutlaqo tilga ehtiyoj sezmasligini ko'rsatadi. Ushbu uch pozitsiya til va tafakkur

munosabatini bir yoqlama emas, balki murakkab hamkorlikdagi tizim sifatida tushunishga imkon beradi.

Tafakkur va til munosabati falsafiy tafakkurning barcha davrlarida turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, umumiy xulosalar shuni ko'rsatadiki, bu munosabatni bir tomonlama izohlab bo'lmaydi. Inson tafakkuri, til strukturalari va idrok mexanizmlari o'zaro murakkab hamkorlik tizimini tashkil qiladi. Ushbu bo'limda antik, islomiy va zamonaviy yondashuvlar asosida shakllangan umumiy nazariy xulosalar analitik tarzda yoritiladi.

Antik falsafada til ko'proq borliqni tasvirlovchi vosita sifatida tushunilgan bo'lsa-da, Platon va Aristotel qarashlarida til tafakkur uchun shart emas, balki uning ifodaviy shakli sifatida talqin qilingan. Bunda fikrning universalligi, tushunchalarning umumiy tabiatga egaligi alohida urg'u bilan ko'rsatiladi.

Islom falsafasida, xususan Forobiy va Ibn Sino asarlarida, tafakkur til bilan chambarchas bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Ularning nazariyasiga ko'ra, mantiqiy kategoriyalar til orqali tashqi shaklga ega bo'ladi, shu bilan birga tafakkurning ichki qatlamlari tilning o'zidan mustaqil bo'lishi mumkin.

Zamonaviy til falsafasi, ayniqsa Sapir-Uorf gipotezasi, tilning fikrlashga bevosita ta'sirini asoslab, insonning dunyoni idrok etishi til strukturalari bilan bog'liqligini ilgari suradi. Biroq kognitiv fanlar tilning ta'sirini rad etmaydi, lekin uni chegaralangan determinatsiya sifatida ko'radi.

Bu uch an'ana orasidagi umumiylik shundan iboratki: til tafakkurni tashkil qiluvchi yagona faktor emas, biroq tafakkurni shakllantirish, tartibga solish va kategoriyalashtirishda muhim vosita sifatida ishtirok etadi.

Tahliliy falsafada, ayniqsa Vitygenshteynning ilk qarashlarida, tilning chegaralari inson tafakkurining ham chegaralarini belgilashi qayd etiladi. Bu yondashuvning kuchli tomoni tilning mantiqiy strukturasini fikrning asosiy modeli sifatida ko'rsatadi. Biroq neyropsixologiyada o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab intellektual jarayonlar, jumladan, tasavvur, obrazli fikrlash, intuitsiya va qaror qabul qilish jarayonlari tilga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshishi mumkin.

Shu sababli integrativ yondashuv quyidagi xulosani taklif qiladi:

Til fikrning mantiqiy shaklini tartiblaydi;

Til tushunchalar orasidagi aloqalarni mustahkamlaydi;

Ammo tafakkur mohiyatan tilsiz ham yashash va shakllanish qobiliyatiga ega.

Bu nuqtai nazar islomiy falsafada ham o'z aksini topgan: Ibn Sino fikrlashni ichki (botiniy) va tashqi (tilga bog'liq) shakllarga ajratadi, bunda til fikrning tashqi tartibi sifatida xizmat qiladi.

Demak, til tafakkurni shakllantiruvchi emas, balki uni aniqlashtiruvchi va tashqi ko‘rinishga chiqaruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Zamonaviy ilm-fanda bu masala yondashuvlarning sintezi sifatida ko‘rilmoqda. Kognitiv fanlar tilning fikrlash jarayoniga ta‘sirini e‘tirof etadi, ammo tafakkurning butunlay tilga bog‘liqligini rad etadi. Metaforik tafakkur nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, inson ko‘pincha dunyoni metaforalar orqali anglaydi, bu metaforalar esa til orqali mustahkamlanadi. Shunday qilib, til insonning dunyoqarashini shakllantirishda faol vositaga aylanadi.

Ijtimoiy-ma‘naviy kontekstda esa til va tafakkur munosabatining ahamiyati yanada dolzarb. Til insonning e‘tiqodi, madaniy xotirasi va qadriyatlarini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Tafakkurning tildan mustaqil qismi esa insonning ijodiy fikrini, yangicha qarash va tashabbuslarini ta‘minlaydi. Til va tafakkur uyg‘unligi jamiyatda ma‘naviy uyg‘onish, ilmiy taraqqiyot va madaniy o‘zlikni anglash jarayonida muhim omil hisoblanadi. Natijada, tafakkur-til munosabatining zamonaviy talqini ularni bir-birini to‘ldiruvchi ikki tizim sifatida ko‘rishga olib keladi. Til fikrni shakllantiradi, fikr esa tilni boyitadi; ikkalasi ham insonning ongiy rivoji va dunyoni idrok etishida o‘ziga xos rol o‘ynaydi.

Tafakkur va til munosabatini bir yoqlama tushuntirish tarix davomida ko‘plab falsafiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Menimcha, bu masalani faqat “til tafakkurga qaram” yoki “tafakkur tilga qaram” degan ikkilik (dualist) qarash doirasida izohlash yetarli emas. Chunki inson tafakkuri ham biologik, ham madaniy, ham ijtimoiy, ham metafizik omillar ta‘sirida shakllanadigan murakkab tizimdir. Bu tizimni birgina til yoki birgina tafakkur orqali izohlab bo‘lmaydi.

Avvalo, shuni tan olish zarurki, insonning dastlabki tafakkur shakllari tilga bog‘liq bo‘lmagan holda paydo bo‘ladi. Bola tilni bilmagan holida ham tashqi muhitdan ma‘lum mantiqiy aloqalarni ilg‘aydi, predmetlar o‘rtasidagi munosabatni anglaydi, sabab-oqibatni his qiladi. Bu — tafakkurning asosiy mexanizmlari biologik va neyropsixologik asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, til tafakkurning yetuk shaklga kelishida muhim rol o‘ynaydi. Til bo‘lmasa, fikrning murakkab kategoriyalarga bo‘linishi, tushunchalar ierarxiasini shakllantirish, abstraktsiyalash, umumlashtirish jarayonlari cheklangan bo‘lardir. Menimcha, til tafakkurning mexanik yaratuvchisi emas, balki uni “me‘moriy jihatdan tartibga soluvchi qurilish tizimi”dir. Til fikrning shaklini belgilaydi, lekin mazmunini yaratmaydi.

Yana bir muhim jihat til insonning ma‘naviy tajribasini barqarorlashtiradi. E‘tiqod, qadriyat, axloqiy me‘yorlar va diniy tasavvurlar til orqali ifoda etilar ekan, ular jamiyat

xotirasida saqlanadi. Demak, til e'tiqodning tashuvchisi, tafakkurning esa tashqi ko'rinishidir. Shu jihatdan, til shaxsiy fikrlarni ijtimoiy boylikka aylantiradi.

Mening nazdimda, tilning fikrlashga ta'siri qudratli, ammo chegaralangan. Til dunyoqarashni shakllantiradi, ammo uni yaratmaydi; til fikrga yo'nalish beradi, ammo fikrning tub mohiyatiga egalik qilmaydi. Inson tafakkuri tilning mavjud shakllaridan kengroqdir; fikr ko'pincha tildan ilgarilab ketadi. Masalan, ijodkor yoki olim avval ichki ko'rinishdagi g'oya sifatida fikrni his qiladi, keyin uni tilga soladi. Demak, fikrning kelib chiqish manbai - ongning ichki dinamikasi, tilning vazifasi esa uni shakllantirish va boshqalar bilan bo'lishishdir.

Shu nuqtai nazardan, til va tafakkur to'qnashmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. Tafakkur tilning chegaralarini kengaytiradi, til esa tafakkurning shaklini ravshanlashtiradi. Insonning intellektual yetukligi ham ana shu ikki tizimning uyg'un ishlashiga bog'liq.

Shaxsan men til va tafakkur munosabatini parallel ravishda rivojlanadigan ikki qatlam deb bilaman: biri ichki va botiniy, ikkinchisi tashqi va ijtimoiy. Til fikrning suratidir, tafakkur esa haqiqatni izlash jarayonining o'zidir. Shuning uchun inson tafakkuri tilga qaram emas, ammo tilsiz mukammal shakllanishi qiyin; til fikrga tobelashmaydi, ammo tilsiz fikrning ta'siri cheklangan bo'ladi.

Tafakkur va til o'rtasidagi munosabatni falsafiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu masala inson ongining tabiatini anglashdagi eng murakkab va ko'p qirrali muammolardan biridir. Antik falsafadan tortib zamonaviy kognitiv fanlarga bo'lgan manbalar shuni tasdiqlaydiki, tafakkurni faqat til orqali yoki tilni faqat tafakkur orqali izohlash yetarli emas. Har ikki jarayon inson ongida o'zaro bog'liq, ammo bir-biridan mustaqil komponentlar sifatida mavjud bo'ladi.

Antik davr mutafakkirlari (Platon, Aristotel) tafakkurni tilga nisbatan ustun qo'ygan bo'lsalar, Sharq tafakkurida fikrni ichki mantiqiy tartib, tilni esa uning tashqi shakli sifatida talqin qildi. Zamonaviy til falsafasi esa, ayniqsa Vitygenshteyn va Sapir-Uorf yondashuvlarida, tilning inson dunyoqarashi va konseptual strukturasi ustidan muhim ta'sirini ko'rsatdi. Kognitiv neyrofanda esa tilga bog'liq bo'lmagan fikrlash jarayonlari ilmiy asosda tasdiqlandi. Bu esa tafakkurning biologik va neyropsixologik ildizlarini yoritib berdi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, tafakkur va tilni biri ikkinchisiga to'la bog'liq holda izohlash oqilona emas. Til tafakkurni yaratmaydi, ammo uni tartibga soladi, shakllantiradi va ijtimoiy muomalaga chiqaradi. Tafakkur esa tilsiz ham yuzaga chiqishi mumkin, ammo til orqali mukammal ravishda ifodalanib, umumiy madaniy xotirada mustahkamlanadi. Shu bois til tafakkurning shakli, tafakkur esa tilning mazmuni sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadi:

- tafakkur ichki bilish jarayoni, til uning tashqi muloqot mexanizmi;

- til fikrni cheklashi ham, uni kengaytirishi ham mumkin;
- tafakkur va tilning uyg'unligi insonning intellektual etukligi va ma'naviy dunyoqarashida asosiy omildir;
- e'tiqod, axloqiy qarashlar va dunyoqarashning shakllanishida til markaziy vosita bo'lib xizmat qiladi;
- tafakkurning eng chuqur qatlamlari (intuitsiya, tasavvur, obrazli fikrlash) tilga nisbatan mustaqil mavjud bo'lishi mumkin.

Xulosa. Yakuniy natija sifatida aytish mumkinki, tafakkur va til inson ongining ikki qirrasi bo'lib, ular o'zaro qarama-qarshi emas, balki o'zaro to'ldiruvchi tizimni tashkil qiladi. Til tafakkurga shakl beradi, tafakkur esa tilning mazmunini yaratadi. Inson ongining rivojlanishi ana shu ikki jarayonning o'zaro uyg'unlashgan holda ishlashiga bog'liq. Shu sababdan, tafakkur-til munosabatini bir yoqlama determinatsiya emas, balki dialektik birlik sifatida talqin qilish eng ilmiy asosli va metodologik to'g'ri yondashuv sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristotle. De Anima. (On the Soul). Trans. by J. Barnes. Oxford University Press, 1986.
2. Al-Farabi. Kitab al-Burhan (Proof Book). In: Al-Mantiqiyat. Cairo: Dar al-Kutub, 1968.
3. Ibn Sina. Ash-Shifa. Al-Mantiq. Vol. 1. Cairo: Al-Hay'a al-Misriyya, 1960.
4. Plato. Cratylus. In: Complete Works. Ed. J. Cooper. Hackett, 1997.
5. Al-Farabi. Kitab al-Huruf. Ed. M. Mahdi. Beirut: Dar al-Mashriq, 1968.
6. Wittgenstein, L. Tractatus Logico-Philosophicus. London: Routledge, 1921.
7. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press, 1965.